

**NODIRABEGIM IBROHIMOVANING "VOZ KECHILGAN  
KITOBLAR" HIKOYASI HAQIDA**

**Askarova Oyjamol**

*Osiyo xalqaro universiteti, 1-FT (o')-24 guruhi talabasi*

*Ustozi: professor*

**Sh.N.Axmedova**

---

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada yosh adiba Nodirabegim Ibrohimovaning "Voz kechilgan kitoblar" hikoyasi, undagi obrazlar haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so’zlar:** *adiba, kitob, nashr, kutubxona, obraz, mavzu, g’oya*

---

**Abstract.** *This article discusses the story "The Books That Were Passed" by the young writer Nodirabegim Ibrohimova and the images in it.*

**Keywords:** *writer, book, publication, library, image, theme, idea*

---

Nodirabegim Ibrohimova zamonaviy o’zbek adabiyotining iste’dodli yozuvchilaridan biri bo‘lib, 1989 yilda Farg‘ona viloyati, Oltiariq tumanida tug‘ilgan. 2011 yilda O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakultetini tamomlagan. Uning qisqa hikoyalari Rossiya, AQSh, Hindiston, Turkiya kabi mamlakatlarda chop etilgan.

Yozuvchilar uyushmasining 2016 yilgi «Iste’dod maktabi» VIII yosh ijodkorlar seminari nasr yo‘nalishi ishtirokchisi. Ijod fondi tomonidan 2017 yilda «Yoningdagi baxt» hikoyalari to‘plami 10 ming nusxada chop etilgan.

Shuningdek, «Jodugar yoxud ming yillik hayot» va «Zulm va muhabbat» nomli mualliflik qissalari, «Dunyodagi eng baxtli odam», «To‘y sovg‘asi», «Hayotning besh tortig‘i» nomli tarjimalar to‘plami nashr etilgan. 2018 yilda chop etilgan «Mitti hikoyalari: kecha va bugun» nomli kitobning to‘plovchisi va so‘zi boshchisi. 2018 yilda «Amarantus» adabiy agentligi tomonidan o’tkazilgan tanlovda o’zbek tilidan ingliz tiliga o‘girilgan «Eng yaxshi tarjima» nominatsiyasida 1-o‘rinni egallagan. 2017 yil noyabr oyida Shvesiya davlatida o’tkazilgan «Evropa ochiq adabiyot festivali va kitob forumi»da finalchilar qatoridan joy olgan. Shu yil so‘ngida Yoshlar ittifoqi mukofotining nasr yo‘nalishi bo‘yicha «Yilning eng yaxshi yosh ijodkori» yo‘nalishida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan<sup>1</sup>.

*Adabiyot olamiga qisqa hikoyalari bilan kirib kelgan, bir qator tarjima asarlari bilan kitobxonlar qalbidan joy olishga ulgurgan Nodirabegim Ibrohimova nomi ko‘pchilikka tanish. Yozuvchi, tarjimon, “Nodirabegim.uz” sayti asoschisi, “Yoningdagi baxt”, “Men, dadam va Alsgeymen”, “Jodugar yoxud ming yillik hayot”, “Zulm va muhabbat” kabi asarlar muallifi Nodirabegim Ibrohimova “*

---

<sup>1</sup> <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/nodirabegim-ibrohimova/>

"Voz kechilgan kitoblar" hikoyasi bosh qahramonining uyqusiz tunlaridan birida eshigi qattiq taqillatilishi bilan boshlanadi. Eshikni ochganda, ikki yil avval o‘ziga bino qo‘ygan, ammo hozirda rangi o‘chgan, ko‘z osti salqi, sochlari to‘zigan, galstugi bo‘ynidan bo‘shatilgan bir yigitni ko‘radi. Bu yigit avvalgi holatidan juda farq qiladi. U uy egasidan tamaddi qilish uchun biror narsa so‘raydi, ammo muzlatkichda unga mos narsa topolmaydi. Bu holat orqali muallif yigitning holati va ruhiyatini yaqqol tasvirlaydi, shu bilan birga insonlar o‘rtasidagi munosabatlar va o‘zgarishlarni ham ochib beradi.

Hikoyada insoniy munosabatlar, o‘zgarishlar va hayotning kutilmagan burilishlari tasvirlanadi. Muallif insonlarning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishi, ularning hayotidagi qiyinchiliklar va bu qiyinchiliklarning insoniy munosabatlarga ta’siri haqida fikr yuritadi. Hikoyadagi yigitning o‘z manfaati uchun hech narsadan qaytmasligi, hayotga, inosn taqdiriga mas’uliyatsizlik bilan qarashi, qalbi quruqligi voqealar bayonida yaqqol ko‘rinadi. Hikoyani o‘qir ekan, kitobxon qalbida yigitga nisbatan nafrat uyg‘onayotganini sezmay qolmaydi.

Qizning xarakteri. ichki dunyosi - juda nozik, chuqur o‘ylovli , sezgir va ziyrak. Kitoblarni qadrlaydi va ularni tirik mavjudotdek yaxshi ko‘radi. Ma’naviyatga boy , qadriyatlarni yuqori qo‘yadi. Hayotda ko‘p narsadan voz kechgan , ammo o‘z " ichki olamini " saqlab qolgan. Qizning xatti-harakatlari -Yigitga samimiy munosabatda bo‘ladi va mehr , iliqlik beradi. Qiz yigitga kitoblar orqali hayotning haqiqiy ma’nosini anglatmoqchi bo‘ladi. Yigit qizdan yuz o‘girsa-da , qiz unga nisbatan nafrat emas , afsus bilan qaraydi.

Yigitning xarakteri, uning ichki dunyosi - yigit hayotga yengil qaraydi. Qizning ichki dunyosiga tushunishga urinadi lekin bu unga og‘irlilik qiladi. Yigitning sevgisiga ishongan sodda qizning yillar o‘tsa-da, uni kutishi, uning uchun har narsaga tayyorligi, vafodorligi tabiiy tasvirlanadi. Ammo unga ishongan qiz oxiri oqibatda undan voz kechadi.

Xulosa qilib aytganda, hikoyadagi bu ikki obraz bir-biriga qarama-qarshi ikki yo‘l, ruhiy boylik va dunyoviy yengillik o‘rtasidagi kurashni aks ettiradi. Hikoyada bugungi kunda hayotga yengil-yelpi qaraydigan yoshlarning hayoti ochib berilgan. Adibaning mahorati shundaki, kichik bir voqeani bayon etish orqali bevafo yigitning va aldangan, ishongan qizning qalbi, hayotga munosabatini yorqin ochib bera olgan.